

MAHMUD SHABISTARIY VA UILYAM BLEYK ASARLARINING MA'NAVIY-G'OYAVIYLIK ASPEKTLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15681493>

Mannonova Feruzabonu Sherali qizi

katta o'qituvchi

Ingliz tili 3-fakulteti,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

email: feruzamannonova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-2173-4698>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikki yozuvchining asarlaridagi ma'naviy-g'oyaviylik aspektlari va badiiy mahorat masalalarining umumiy xususiyati keng yoritiladi. Har ikki shoir ham insonning ichki va tashqi kurashlarini, uning ijtimoiy va psixologik holatlarini yoritishga intilgan. Shabistariy va Bleykning badiiy olamida nafaqat individual ruhiyat, balki jamiyatning psixologik holati ham ifodalanadi. Har ikki yozuvchi o'z asarlarida, xususan, "Gulshani Roz" va "Ma'sumlik qo'shiqlari"da chuqur psixologik izlanishlar va insonning ichki dunyosidagi o'zgarishlarni tasvirlaydi, bu esa ularning badiiy poetikasini yanada boyitadi va rang-baranglashtiradi.

Kalit so'zlar: so'fiylik ta'limoti, romantik adabiyot, badiiy obraz, g'oyaviylik, psixologik tahlil, insoniylik xislatlari, ichki dunyo.

Abstract. This article broadly covers the spiritual and ideological aspects and the general nature of the issues of artistic skill in the works of the two writers. Both poets sought to illuminate the internal and external struggles of man, his social and psychological states. The artistic world of Shabistari and Blake reflects not only the individual psyche, but also the psychological state of society. Both writers, in their works, in particular, in "Gulshani Roz" and "Songs of Innocence", describe deep psychological research and changes in the inner world of man, which further enriches and diversifies their artistic poetics.

Keywords: Sufi doctrine, romantic literature, artistic image, idealism, psychological analysis, human qualities, inner world.

Kirish. Shayx Sa'diddin Mahmud bin Aminiddin Abdulkarim bin Yahyo Shabistariy o'z davrining mashhur ilohiyot vakili va so'fiylik ta'limotining hurmat qozongan shayxi bo'lib, uning "Gulshani Roz" - kichik hajmli ammo keng mazmunli asar bo'lib, unda islom dini ta'limoti va XIII-XIV asrga tegishli so'fiylik ta'limoti prinsiplari hamda asoslari belgilangan.

Shabistariygacha so'fiylik ta'limotini Hujviri, Shahobiddin Suhravardiy, Imom Muhammad G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlar o'zlarining ta'limotlarida va falsafiy fikrlarida bayon etib o'tganlar

[1]. Shabistariyda islom ta'limoti mazmuni mezon, me'yor nazariyasi tarzida tartiblanib, amaliy asosi xalqchil tilda bayon etilgan.

Uilyam Bleykning "Ma'sumlik qo'shiqlari" turkumi turli tillarga tarjima qilingan va jahon adabiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Ushbu asar birinchi marta XIX asrda boshqa Yevropa tillariga tarjima qilina boshlagan. **Fransua Villenoy** tomonidan 1860-yillarda frantsuz tiliga amalga oshirilgan ilk tarjimalar Bleykning Yevropada mashhur bo'lishiga hissa qo'shdi. Keyinchalik nemis tarjimoni **Stefan Gross** 1920-yillarda uning asarlarini tarjima qilgan bo'lib, bu tarjimalar Germaniyada Bleyk ijodiga bo'lgan ilmiy qiziqishni oshirdi. Rus tilida esa Boris Pasternak tomonidan XX asrning o'rtalarida tarjima qilingan "Ma'sumlik qo'shiqlari" kitobi keng tarqaldi.

Adabiy tavsif. "Gulshani Roz"da obrazlarning ishlatilishdan maqsadi, ishlatilish shakli va atributlari ham ikkinchi bo'limda muhokama etilgan va tasavvuf adabiyoti namumalari, xususan "Gulshani Roz" asaridan keltirilgan misollar bilan boyitilgan [3]. Shu usul orqali asosiy maqsad ya'ni, timsol va obrazlarni mavjud bo'lgan narsalar o'rtasidagi farqlarni oqilona topa olish va taqqoslashga erishilgan. Aks holda, tasavvufiy bilimga tajribaga ega bo'lmagan odamda ularning qo'llash, anglash va talqin qilishda qator muammolar yuzaga keladi.

Uilyam Bleykning adabiy obrazlari ham jahon adabiyotshunosligida keng o'rganilgan bo'lib, ular turli burchaklardan talqin etilmoqda. Uning asarlaridagi ramzlar inson ruhining murakkab tomonlarini, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni va falsafiy qarashlarni aks ettiradi [5]. Bleykning poetik va tasviriy san'ati hamon tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilmoqda va u adabiy tafakkurning chuqur qatlamlarini ochib berishda muhim manbalardan biri bo'lib qolmoqda.

Metodologiya. Yuqorida aytib o'tilgandek, asar g'oyaviyligi va manaviy mohiyatidan kelib chiqqan holda, har bir obraz kontekstga qarab turli ma'nolat tashishi mumkin. Masalan, Ko'ngil yohud qalb obrazi Uindfild tarjimasi 82 marta, savol – javolar qismida esa 71 marta foydalanilgan [4]. Alohida olinganda, Qalb obrazi 3- savol javobda tilga kiradi va turli shakllarda namoyon bo'ladi:

Universal qalb	When the elements are adjusted in equipoise, <i>The Soul</i> is, as it were, enamoured of their beauty, A mystical marriage comes to pass according to the right faith The world is the dowry given to man by the <i>Universal Soul</i> .	Unsurlar muvozanatga keltirilganida, <i>Qalb</i> ularning go'zalligiga maftun bo'ladi. To'g'ri iymon asosida mistik nikoh sodir bo'ladi, Olam esa <i>Umumjahon Ruhi</i> tomonidan insonga berilgan sepdir.
Inson qalbi	Thence you say " I myself have free - will, " My body is the horse and my soul the rider, The reins of the body are in the hand of the soul , The entire direction thereof is given to me."	Shunday qilib, sen aytasan: 'Men o'zim erkin irodaga egaman. Tanim — ot, ruhim esa chavandoz. Tanamning jilovlari ruhimning qo'lida, Uning butun yo'nalishi menga ishonib topshirilgan.
Dunyo qalbi	You are the kernel of the world in the midst thereof, Know yourself that you are the world 's soul	"Sen olamning o'rtasidagi mag'zisan, O'zingni bil, chunki sen olamning ruhisan."
Otaning qalbi (Odam alayhissalom qalbi)	Go, Soul of your father! yield yourself to God 's will, Resign yourself to the Divine fore ordinance	Bor, otangning ruhi! O'zingni Xudoning irodasiga topshir, O'zingni ilohiy taqdirga taslim et.
Sening qalbing (xaqiqat)	Read the books of Th e Truth — your soul and the heavens, Be adorned with the principle of all the virtues.	"Haqqning kitoblarini o'qi — qalbingni va osmonlarni, Barcha fazilatlarining asosi bilan ziynatlan."
Sarxush qalb	The whole universe is as His wine house, The heart of every atom as His winecup.' Reason is drunken, angels drunken, soul drunken, Air drunken, earth drunken, heaven drunken.	Butun olam Uning mayxonasidek, Har bir zarra yuragi Uning qadahidek." Aql mast, farishtalar mast, ruh mast, Havo mast, yer mast, osmon mast.
Payg'ambar qalbi	All relations are a fairy tale, a spell, a bond, By the soul of the prophet they are naught but a delusion. With manliness deliver yourself like a valiant man, But yet make not vain the truth of any.	Hammasi bir rivoyat, sehr, bog'liqlik, Payg'ambar ruhi bilan ular faqat bir xayol. Jasorat bilan, botir kabi o'zingni ozod et, Lekin hech bir haqiqatni bekor qilma.

Tadqiqotning 2- obykti bo'lgan, Uilyam Bleykning she'riyatida tabiat va tabiiy hodisalar mistik ruh bilan uyg'unlashgan. Tabiat obrazlari, afsonaviy voqealar va diniy g'oyalarning birlashuvi shoir ijodining asosiy jihatlaridan biridir.

Uordsvortning "Tun" she'rida oy manzarasi g'amgin ruhda tasvirlangan bo'lsa, Bleyk undagi oyni tungi osmondagi bog'da ochilgan gulga o'xshatadi:

Xayr, o'rmonlar, dalalar,

*Beg'ubor suruv panoh topdi –
Yaylovdagi o't zarar ko'rmas,
Endi farishtalar mehmon,
Va gullarni, maydonlarni duo qiladi.*

Tabiatga bag'ishlangan ushbu she'rda farishta obrazi tun obrazi bilan uyg'unlashadi. Xalq afsonalarida kechasi farishtalar paydo bo'lishi haqidagi motivlar keng tarqalgan. Bu obraz, shuningdek, Uilyam Bleykning bolaligida farishtalarni ko'rganiga oid iddaolari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Keyingi bandlarda farishta obrazi yanada harakatga kiradi — ular bahorgi qushlarni va ularning inlarini yirtqichlardan himoya qiladi, uyqudagi har bir jonzotni tinchlantiradi [7].

Asarda insonning insoniyligi ilmi va amali asosida baholanishi ulug'lanadi va jamiyatda johillar tomonidan yo'l qo'yilayotgan illatlar insonni ilm va amaldan chiqaradi, bunday johil odamlarni qoralab, omiylar, ilmsizlar, betakalluf, behayo, jaholatdan or ham qilmaydiganlar, deya ta'riflanadi.

Natija va muhokama. Tadqiqot davomida, Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleyk novatorligining o'ziga xos jihatlari, ularning obraz yaratish va psixologik tahlil qilishdagi uslublari, tabiat va ijtimoiy sharoitlarga nisbatan tutgan munosabatlarini keng qamrovda ko'rsatish imkonini berdi. Asarlarda ruhiyat va ma'naviyat masalalarining muhim o'rni, yozuvchilarning ijtimoiy hayotni va insonning ichki dunyosini tasvirlashdagi muvaffaqiyatli yondoshuvlarini ta'kidlash mumkin.

Uilyam Bleykning har bir she'ri, ulardagi yaratilgan badiiy obrazlar, foydalanilgan badiiy detallar va o'z navbatida ularga yuklangan ma'nolar shu qadar jonli, ishonarli va betakrorki, ularning har birini alohidadan tahlil qilib, bir qator kattadan katta ilmiy ishlar yaratish mumkin. Lekin ilmiy ishimiz hajmi jihatidan ayrim cheklovlarni hisobga olsak, ularni umumlashtirgan holda tahlil qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Tahlilimiz boshida aytganimizdek, badiiy obraz turlaridan ayrimlari: satirik va yumoristik obrazlar adib ijodida ustunlik qilishini kuzatishimiz mumkin. "Nurse's song"dagi enaga, "Little Boy Lost" dagi Tom Darsi, "Littelle Girl Lost"dagi Emili va Meri obrazlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Uilyam Bleykning she'rlari tabiat, ijtimoiy tizim va insonning o'z ichki kurashlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni chuqur tahlil qiladi. Uning obrazlari o'zlarining ruhiy va jismoniy sinovlari orqali insoniyatning eng asosiy savollariga javob qidiradi: hayot, o'lim, kuch va zaiflik. Uilyam Bleykning hikoyalaridagi personajlar har bir o'ziga xos tarzda, o'zligini kashf etish va o'zining haqiqiy kuchini topish yo'lida kurashadi. Bu asarlar nafaqat tabiatning qo'rqinchli kuchlarini, balki insonning ichki dunyosini ham tasvirlaydi, shu bilan birga, har bir individning o'z yo'lini topishdagi kurashini ko'rsatadi. Uilyam Bleykning hikoyalarida obrazlar ko'pincha tabiat va ijtimoiy tizimlar bilan bo'lgan ziddiyatlarda, shuningdek, insonning o'z ichki kurashlari va psixologik qiyinchiliklarida namoyon bo'ladi [5]. U o'z asarlarida insonning hayotidagi

kurashlarni, faqat jismoniy emas, balki ruhiy jihatlarni ham chuqur o'rganadi. Bleykning obrazlari, tabiatning ayovsiz qonunlari va ijtimoiy tizimning kishilarga bo'lgan munosabatlari orqali, insonning haqiqiy o'zligini va kuchini kashf etishi jarayonini tasvirlaydi. Uning asarlari o'zining murakkab psixologik tahlillari, tabiat va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashdagi ta'siri bilan mashhurdir.

Xulosa. Shunday qilib, Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleykning asarlaridagi an'anaviylik va novatorlik o'rtasidagi o'zaro aloqalar, har ikki yozuvchining badiiy poetikasining o'ziga xosligini shakllantiradi. Shabistariy o'zining ideologik uslublarida inson ruhiyatini va diniy – axloqiy masalalarni ilgari surgan bo'lsa, Bleyk esa tabiat va psixologik tasvirlar orqali romantik- mistik adabiy yondashuvni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Ularning asarlari o'z davrining adabiy an'analari amal qilib, zamonaviy yondoshuvlarni ilgari surgan, shu bilan birga, o'zi yaratgan yangi adabiy uslublar orqali adabiyotga yangi qarashlar va shakllar olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Andrey Lukashev. Ijodiy meros. Monoteizm falsafasi. Mahmud Shabistariy; Zamonaviy dunyoda islom. 2017 yil 13-jild. 4-raqam.
2. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va She'riyat. G'afur G'ulom. 1991.
3. F. Mannonova. Mahmud Shabistariyning "Gulshani Roz" asarining tasavvuf adabiyotidagi obraz va ramzlar shakllanishidagi ahamiyati. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. Maxsus son – 4. 2024.
4. Mahmud Shabistariy. "Gulshani Roz". Unitilgan kitoblar. 1880.
5. S. Erle. Qum zarralari dunyolarini ko'rish: Bleyk va anglash. 2022.
6. T. Kozlova. Ut pictura poesis: Uilyam Bleykning she'riy dunyoqarashida so'z va tasvir sintezi. ACNS Konferensiyalar to'plami: Ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar. 2023.
7. Uilyam Bleyk. "Ma'sumlik va Tajriba qo'shiqlari". London. Picadelliy. 1866.